

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiya” fakulteti
“Kimyoviy texnologiya” kafedrası

“Himoyaga ruhsat etildi”

Fakultet dekani

_____v.v.b., A.M. Akramov

“ ” _____ 2016-yil

5320400-Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlaribo'yicha)

Bakalavriatura ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Abdullayeva Dildora Alijon qizi

Ekstruziya usuli bilan stretch polietilen plyonka ishlab chiqarish bo'limining loyihasi
(ishlab chiqarish quvvati yiliga 1200000 pogona/metr) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BMI rahbari:

kat.o'qit U Akbarov

Kafedra mudiri:

dots., D.Sh. Sherquziyev

Namangan-2016

M U N D A R I J A

	Kirish.	
	Texnologik qism	
1.1	Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy-kimyoviy, texnologik asoslari.....	
1.2	Hom-ashyo, yordamchi materiallar.....	
1.3	Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari.....	
1.4	Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar.....	
1.5	Xom ashyo va materiallarning sarf balansini.....	
1.6	Texnologik jarayonda asosiy jihozni tanlash va uning issiqlik balansini xisoblash.....	
2	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish.....	
3	Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	
4	Mexnat muhofazasi va atrof muhitni muhofaza qilish.....	
	Xulosa.....	
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	

Kirish

Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishni istovchi har bir mamlakat rivojida texnika va texnologiyalarning o'rnini qanchalik yuqori ekanligini teran anglamoqdalar. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari nihoyatda o'rinli: **“Birinchida iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobiga amalga oshirish mumkin”.**[1] Bugungi kimyo sanoatining, xususan polimerlar kimyosining mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati juda yuqori. Polimerlar kimyosi sanoatining rivojlanishini muhim vazifalaridan biri sanoatning barcha tarmoqlarida va turmushda zamonaviy kimyo yutuqlaridan to'la foydalanishdir, yangi, mukammalroq va arzon ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishdir. Polietilen termoplastlar qatoriga kiradi, ishlab chiqarish va hajmi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Qaysi texnologik jarayon bo'yicha ishlab chiqarilishiga qarab xossalari va qo'llanilishi har xil bo'ladi, masalan: yuqori bosimda olinadigan polietilenning 60%ga yaqini plyonka olish uchun ishlatiladi.

Respublika boy gaz, gaz kondensat va neft zaxiralariga ega. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati respublikada bu soxa bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Shu sababli Prezidentimizning 2000 yil iyul oyida qarshi shaxrida so'zlagan nutqlaridan ayrim joylarini keltirishni lozim topdim.

“Ko'kdumaloq neft koni, Muborak gazni qayta ishlash zavodi va boshqalar mamlakatimizda asosan yoqilg'i-energetika bazasini tashkil etadi”.

Sho'rtangaz kimyo kompleksi (SHGCC) 2001 yildan boshlab bir yiliga:

- 125 ming tonna polietilen xom ashyosi;
- 102 ming tonna gaz kondensati;
- 142 ming tonna suyultirilgan gaz maxsulotlarini ishlab chiqara boshlaydi.

SHGCC qurilishiga AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli kompaniyalari jalb etilib 650 million AQSh dollari miqdorida sarmoya sarflanadi.

Bu korxona ishga tushgach nafaqat polietilen granulasi va plyonka, ayni vaqtda eksport bop va raqobatbardosh uy-ro'zqor buyumlari, gaz va suv quvurlari, texnik uskunalar kabi xalq xo'jalik ehtiyojlari uchun zarur maxsulotlarini xam o'zimizda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Kompleks to'la ishga tushganda 2000 ga yaqin yangi ish o'rinlari ochiladi.[5]

Dexqonobod tumani xududida joylashgan yangi tuz koni yiliga 500 ming tonna kaliyli o'qit ishlab chiqarish va 500 ming tonna osh tuzi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavod ishga tushishi mo'ljallangan.

Yuqorida keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatayaptiki, ayni paytda polietilen ishlab chiqarish uchun asosan etilen ishlatiladi. Xozirgi vaqtda polietilenni sintez qilish uchun bir necha usullar mavjuddir: yuqori bosimda sintez qilish; past bosimda olish; eritma muxitda sintez qilib chiziqsimon tuzilishga ega bo'lgan polietilen olish va texnologik usulga qarab olingan polietilen quyidagicha nomlanadi; kam zichlikka ega; yuqori zichlikka ega; o'rta zichlikka ega bo'lgan polietilenlar va chiziqsimon kam zichlikli polietilen deb ataladi. Adabiyotlarda ular quyidagicha belgilanadi (ingliz tilida) LDPE; HDPE; MDPE va LLDPE.

Hozirgi paytda plastmassani qayta ishlash sanoati yangi usullar va uskunalarga asoslangandir. Individual polimerlar polimer kompozitlar va polimerlar aralashmasi bilan almashtirilib borilayapti. Bularning natijasida materiallarning xossalari kengaymoqda va ulardan xalq iste'mol buyumlaridan tortib to xarbiy va kosmik texnikada qo'llaniladigan detallarni olish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasiga quyidagi jarayonlar kiradi:

Kimyoviy tarkibni o'zgartirish, polimerga to'ldiruvchilar, plastifikatorlar kiritish va termomexanik ishlov berish.

Olingan materialni shakllash va plastmassadan buyum olish. Buyum konstruksiyasi ilmiy jixatdan asoslangan va konkret ekspluatatsiya sharoiti xisobga olingan xolda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Bu esa o'z ichiga turli jarayon va uskunalarini olib, polimerlarning zaruriy (foydali) xossalarni yaxshilash va ularni tayyor buyumga aylantirish jarayonlaridan iboratdir. Polimerlarni qayta ishlaganda ular deformatsiyaga uchraydi, ularda kimyoviy

reaktsiyalar ketishi mumkin xamda fizik xossalarining qaytmas tarzda o'zgarishini kuzatish xam mumkin.

Plastmassalarni qayta ishlashning texnik usullariga quyidagilar kiradi: bosim asosida quyish, ekstruzitsiyalash, kalandrlash, pigmentlarni polimerlarga aralashtirish, polimer plyonka yuzasini modifikatsiyalash va boshqalar. Bosim ostida quyish, ekstruziyalash usullari keng tarqalgan va umumli usullar bo'lib, ularda polimerlarning oqimini kuzatish mumkin, ya'ni bunda ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari o'zgarmaydi.

Termoreaktiv materiallarni presslashda, polimer plyonka yuzasiga gaz alangasi yoki koronno'y razryad ta'sir qilishi natijasida materialda kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Kristallanish darajasi orqali makromolekularning orientatsiyalanishini rostlash, tekstil tolalari va plyonkalar ishlab chiqarishda mexanik xossalarini yaxshilash mumkin. Bunday xolda materiallarda fizik xossalarning qaytmas tarzda o'zgarishi sodir bo'ladi.

Polimerlarni qayta ishlash prosesslarida deformatsiyalanish va oquvchanlik aloxida o'rin olgan. Polimerlarni qayta ishlashda kristallanishni, polimerlarning dielektrikligini xisobga olish lozim. Shuningdek, polimer yuzasida sodir bo'ladigan kimyoviy reyaktsiyalarni, issiqlik o'tkazish xossalarini xam e'tiborga olish kerak.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va maxsulot sifatini yaxshilash maxsadida plastmassalarni qayta ishlashda yarim avtomat va avtomatlashgan liniyalarni qo'llash, mikroprotessorli texnikani va sanoat robotlarini keng qo'llash xozirgi kun talabidir.

Plastmassalarni qayta ishlash usuli bilan olingan buyumlarga yaxshi dekorativ ishlov berish, pardozlash va ularni bozorbop qilish, xamda buyumni qaysi soxada qo'llashni texnik-iqtisodiy asoslab berish kerak.

Xar bir polimerdan qanday buyum yoki maxsulot ishlab chiqarish kerakligini va shu maxsulotga bo'lgan talabni yaxshi o'rganish lozim. Polimerlarni plastmassa, rezina-texnik buyumlar, lok-bo'yoq va tolalarga qayta ishlashda xom ashyoni yaxshi tanlab olish va buning uchun o'z navbatida bu polimerlarning xossalarini, tuzilishini va qayta ishlash jarayonida o'zgarishlarini yaxshi bilish kerak.

Plastmassa va rezina-texnik buyumlarini ishlab chiqishda chiqindilar xosil bo'lishi mumkin (ayniqsa, reaktoplastlarda, revulkanizatsiyaga uchragan kauchuklarda), ularni yoqish, suvga tashlash yoki yerga ko'mish yaramaydi (masalan, polietilentereftalatdan tayyorlangan idishlarni). Buning uchun xar bir korxona o'zining ekologik tadbirini ishlab chiqishi lozim. Bu tadbirlarda chiqindini kamaytirish, uni qayta ishlash, ifloslangan xavoni tozalash va h.k. lar aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda polimerlarni qayta ishlash korxonalari va ular ishlab chiqarayotgan maxsulotlar quyida keltirilgan:

1. Oxangaronlenplast: PVX, PE lardan linoleum, truba, plyonka, santexnik buyumlar olayapti.
2. Angren rezina-texnika zavodi: kauchuklardan rezina tayyorlab ulardan keng iste'mol tovarlari va texnika uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab chiqarayapti.
3. Jizzax plastmassa zavodi: 1972 yilda ishga tushgan bo'lib, sobiq ittifoqda eng yirik korxonalar qatoriga kirgan. Shu kunda 15000 tonna polietilendan qishloq xo'jaligi uchun plyonka olish liniyasi ishlab turibdi va 8-10 ming tonna polietilendan truba ishlab chiqarish sexi mavjud. Bu liniyada diametri 300 mm-lik gaz va suv quvurlari olish imkoniyatiga ega.
4. Toshkentda bir qancha plastmassalarni qayta ishlash korxonalari bor. Bularga "Sovplastital" XK, "Spetspolimerdrenaj", "GSKB po irrigatsii" maxsus rezina-texnika zavodi, deraza romini yasaydigan (PVX kompozitsiyasidan) quyosh nuridan saqlaydigan uskunar tayyorlovchi zavod va boshqalar mavjud.

Qarshi shahridagi "Termoplast" zavodi yiliga 10 ming tonnadan ortiq PE va PVX materiallarini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bulardan asosan gaz va suv uchun trubalar, plyonkalar olish mumkin.

Farg'ona vodiysidan bu soxada Farg'ona va Andijon shaharlaridagi zavodlarni misol keltirish mumkin.

Polimerlar ishlab chiqarish, taxminan, 1970 yillardan boshlangan bo'lsa, xozirgi vaqtda "Navoiyazot" zavodida poliakrilnitril, poliakrilatlar, Farg'onada xar xil furan smolalari, poliamid-6, atsetiltellyuloza, Namanganda KMTS va nixoyat, 2000 yilda

ishga tushadigan Sho'rtangaz kompleksida polietilen (yiliga 125 ming tonna) ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi vazifalari

Tehnologik jarayonni undagi qaytar va qaytmas yo'qotishlarni oldindan hisoblashni o'rganish va hom ashyo sarf balansini tuzish

Tanlangan asosiy jihozni texnik harakteristikasini, ishlash prinsiplarini , issiqlik balansini tuzish.

Tehnologik jarayonni avtomatlashtirish va jihozni optimal ishlash sharoitini tanlash.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni tonnarhini rentabilligini hisoblash texnologik liniya qancha vaqt davomida o'z – o'zini qoplashini hisoblash.

Tehnologik liniyada ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'lgan zararli gazlarni aniqlash va sanitary normalarni bilish ularning inson salomatligiga ta'sirini o'rganish

Mavzuni dolzarbligi: Yurtimizda xususan bizning viloyatimizda stretch plyonkalara bo'lgan extiyoj katta. Shu nuqati nazardan extiyojni qondirish maqsadida BMI mavzuimni strech plyonkalar ishlab chiqarish bo'yicha tanladim. Bundan tashqari mavjud strech plyonklarni sifatini yaxshilash, hamyonbop ya'ni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari pasaytirish mavzuning asosiy dolzarbligidir.

Texnologik qism

1.1.Maxsulot olishning texnologik jarayonini nazariy kimyoviy, fizikaviy-kimyoviy, texnologik asoslari

Termoplastik polimerlarni xar xil profilga ega bo'lgan teshiklar orqali uzluksiz siqib chiqarish va uni sovutish **ekstruziyalash** deb ataladi. Bu usul bilan trubalar,

pardalar, list, plyonka, shlanglar, kabel simlarini ustini polimerlar bilan qoplash va xar turli uzunasiga o'lganadigan buyumlar olinadi.

Ekstruziya jarayoni ekstruder deb ataluvchi mashinalarda amalga oshiriladi. Ekstrudorlar xar xil bo'ladi: bir chervyakli, ikki chervyakli, diskli va kombinirlangan.

Ekstrudor asosan quyidagi qismdan iborat: stanina unda isitiladigan silindr joylashtiriladi; silindr ichki qismida bir yoki ikki chervyak o'rnatiladi; chervyaklar elektr dvigatel bilan (aylanish uchun) qoplangan; silindrda isitish va sovutish sistemasi mavjud. Shakllash uchun maxsus forma qo'llaniladi. Masalan, truba olish uchun mundshtuk va dorndan iborat profil beradigan qo'shimcha uskuna yasatiladi.

Ekstruziyalash uchun material granula xolatda mashina bunkeri orqali isitiladigan silindrga tushadi. U yerdan oquvchan xolga o'tgan issiq material aylanib turuvchi shnek vositasi orqali oldinga surilib, mashinani bosh qismiga o'rnatilgan forma orqali siqib chiqariladi.

Demak, ekstruderni vazifasi polimerni silindir bo'ylab siljishini, uning yumshashini va gomogenlashishga o'tishni ta'minlashdir; undan tashqari silindr ichida gidrostatik bosim paydo qilish, chunki polimer oqishi va uning kallak orqali shaklga aylanishi shu bosim tufayli amalga oshiriladi.

Isitiladigan silindr (chervyak singari) shartli ravishda uch zonaga bo'linadi:

1 zona — granulaning silindrga tushishi va uni oldinga siljishi va zichlanishi (uplotnenie).

2 zona – siqish zonasi, bu zonada polimer sekin-asta issiqlik ta'sirida yumshaydi va plastikalanadi. Bu berilayotgan issiqlik va materialning ichki ishqalanishi natijasida xosil bo'ladigan issiqlik tufayli amalga oshiriladi.

Polimerlarni suyuqlanishida uning xajmi kamayadi, shu tufayli bu zonada chervyak kanalining chuqurligi kamayib borishi rejalashtirilgan.


Oxirgi 3 zona — dozirovanie nomi bilan ataladi. Bunda butun chervyak vint kanali bo'ylab suyuqlangan polimer bilan qoplangan va suyuqlanma qolipga siqib chiqarib beriladi.

1 zona uzunligi odatda silindrga tushayotgan granul joyidan boshlab to granulni suyuqlangan qatlami silindr devorida yoki shnekda xosil bo'lganicha uzunlik qabul qilingan.


2 zona – suyuqlanish zonasi - suyuqlanish boshlangandan to butunlay granulni suyuqlangan xolatga kelguncha shnek masofasi qabul qilingan.

3 zona – dozirovanie, bu zonada butunlay suyuqlangan, xarorat bir tekis taqsimlangan va suyuq polimer bir xil xossaga ega bo'lishini ta'minlash zonasidir va suyuqlanma siqib chiqarishga tayyor.

To'g'ri oqim sxemasi



Sirkulyatsion oqim sxemasi



1.1-rasm

Chervyakning zonalarga bo'linishi

Chervyakni vint kanalida (3 zonada) to'rt oqimini kuzatish mumkin:

1. To'qri, majburiy oqim bu kallak tomon yo'nalgan bo'ladi.
2. Teskari oqim — to'qri oqimni kamayishi; bunga sabab kallakning va silindr devorining qarshiligidir.
3. Sirkulatsion oqim — vintli kanal o'qiga perpendikulyar ravishda yo'nalgan oqim bo'ladi.
4. «Utechka» oqimi - chervyak va silindrni ichki satxidan xosil bo'lgan oraliqda sodir bo'ladi va u granula tushayotgan bunker tomon yo'nalgan bo'ladi.

Sirkulyatsion oqim sxemasi


Ekstrudorning unumdorligi to'qri va teskari oqimdan kelib chiqadi. Sirkulatsion oqim odatda ekstruder unumdorligiga deyarli ta'sir etmaydi. «Utechka» oqimi qiymati juda kam bo'lgani uchun u xisobga olinmaydi.

Chervyak zonalarning uzunligi va ularning bir-biriga nisbati qayta ishlanayotgan polimer xossasiga, tuzilishiga bog'liqdir.

Masalan, amalda termoplastlar qayta ishlanayotganda (ular keng diapazonli xaroratda suyuqlanadi) chervyakning siqish zonasi uzunrok bo'lishi kerak. Kristall polimer uchun aksincha, siqish zonasi qisqaroq bo'ladi (odatda zona uzunligi silindrning diametriga teng bo'ladi).


Termik turg'un bo'lmagan termoplastlarni (PVX) qayta ishlashda siqish zonasiz jarayon olib boriladi. Buning uchun maxsus chervyaklar qo'llaniladi, ularda kanal chuqurligi kamayib boradi. Buning natijasida PVXni parchalanishi keskin kamaytirib yuboriladi (yana shuni e'tiborga olish kerakki, siqish zonasida issiqlik ajralib chiqadi).

Silindr ichida materialni oqishiga ishqalanish koeffitsenti katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun chervyak yuzasi va material o'rtasidagi ishqalanish koeffitsenti silindr yuzasi bilan material o'rtasidagi ishqalanish koeffitsentidan kam bo'lishi kerak. Agarda bunga rioya qilinmasa, unda suyuqlangan polimer chervyak bilan aylanib ketadi va oldinga siljish bo'lmaydi. Chervyakka bo'lgan ishqalanish koeffitsentini kamaytirish uchun chervyak ichidan (o'qi orqali) sovuq suv yuboriladi. Quyidagi rasimdan ko'rish mumkin.



1.2-rasm. Shnek ishqalanish koeffitsientining temperaturaga bog'liqligi

Masalan, polietilendan buyum olish jarayonida bu farq 30-400 C⁰ ni tashkil etadi. Lekin shnekning xarorati past bo'lsa, granulaning suyuqlanishi qiyinlashadi (qovushqoqligi oshadi), gomogen massa xosil bo'lishi qiyinlashadi. Natijada mashina unumdorligi pasayadi (O') va nisbiy "mohnost" (udelnaya mohnost) (N) ortadi.



1.3-rasm

Suyuqlanmani silindr ichida aralashtirish jarayonida mexanik energiyaning bir qismi issiqlik energiyasiga aylanadi. Issiqlik ajralishi chervyakning aylanish soni oshishi bilan oshib boradi. Bu ajralgan issiqlik qiymati ko'paygan sari ayrim paytlarda tashqaridan isitishga xojat bo'lmay qoladi.

Ekstrudorning ishlashiga granulaning formasi va o'lchami katta ta'sir ko'rsatadi. Agarda granula katta o'lchamga ega bo'lsa, unda suyuqlanma ichida xavo qolishi mumkin. Bu olingan buyumda pufak (vzdutiya) xosil bo'lishiga olib keladi.

Xuddi shunga o'xshash buyum sifatiga suyuqlanmaga ta'sir qilayotgan kuchlanish (napryajenie) va deformatsiya tezligi ta'sir ko'rsatadi. Agar kuchlanish ko'payib ketsa

(normadan yuqori), unda buyum sirtida notekislik, qalinlanish (utolhenie) va boshqa sifatga salbiy ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar paydo bo'ladi.

Odatda silindr xarorati shnek xaroratidan yuqori bo'ladi. Shu sababli oldin suyuqlanayotgan polimer plyonkasi silindr devorida paydo bo'ladi. Suyuqlangan materialni xarakati silindr yuzasida va granulani esa shnek atrofiga siljishi tufayli yuzaga keladi. Granulaning suyuqlanishi tufayli uning xajmi kamayadi, shuning uchun suyuqlanish zonasida shnekning chuqurligi kamayib boradi, buning xisobiga asta-sekin siqish va zichlanish sodir bo'ladi. Qanchalik oldin suyuqlanish tamom bo'lsa, shunchalik suyuqlanma aralashishi yaxshilanadi va u bir tekis bo'ladi.

Dozalash zonasida suyuqlanma xarakati qovushqoq-oquvchanlik (vyazkogo techeniya) orqali bo'ladi. Bunga shnekni aylanishi silindr devoriga yopishgan polimerning katta ta'siri bor.

Ekstruziya texnologik jarayonlari konkret texnologik jarayonga qarab xisoblanadi. Masalan, kristallanish va buyumni ma'lum kristallik darajasiga ega bo'lishi uchun suyuqlanmani sovutish tezligi va nostatsionar issiqlik o'tkazuvchanligiga qarab ekstrudatni chiqarish tezligi va ekstruderning ishlab chiqarish xajmi aniqlanadi.

Amorf polimerlardan buyum olishda ekstruziya tezligi orientatsiya darajasiga qarab aniqlanadi. Unda ekstrudentda notekislik xosil bo'lishini (elasticheskaya turbulennost) e'tiborga olish zarur.

Statsionar xolatda quyidagi tenglikka rioya qilish zarur :

$$Q_z = Q_{pl} = Q_d$$

Bundan tashqari suyuqlanmani formaga aylanishida va formadan chiqayotganda sodir bo'ladigan jarayonlar xisobga olinishi kerak: makromolekulalarni darajasi siljish tezligiga bog'liqligi, suyuqlanmaning tortish kuchi va tezligi, suyuqlanma oqimining elastikligini tiklash va boshqalar.

Bularga quyidagilar kiradi: suyuqlanma xarorati silindrda va kallakda, suyuqlanmaning kallakdagi bosimi, shnekning aylanish tezligi (chastotasi).

Optimal rejimni belgilashda termoplastning turi, uning molekulyar massasi, kompozitsiya tarkibi, buyumning o'lchami va shakli, foydalanilayotgan uskuna turlari va xokazolarni xisobga olish kerak.

1.2.Xom-ashyo yordamchi materiallar

Polietilen

Polietilen zichligi 910-970 kg/m³, yumshash xarorati 110-130 °C bo'lgan termoplastik polimerdir.

Sanoatda turli usullarda ishlab chiqarilayotgan polietilen bir-biridan zichligi, molekula massasi va kristallik darajasi bilan farqlanadi.

1.4-jadval

PE ning xossalari	Quyi zichlikli polietilen (YuB)	Yuqori zichlikli polietilen (PB va O'B)
Zichlik, kg /m ³	910-930	950-970
Malekula massasi	80000-500000	80000-800000
Kristallik darajasi, %	50-65	75-90

Xossalari va ishlatilish joyiga qarab polietilen bir-biridan zichligi, suyuqlanmasini oquvchanlik ko'rsatkichi, barqarorlovchi qo'shilgan va qo'shilmaganligi bilan farqlanuvchi turli markalar ostida chiqariladi.

Quyida polietilenlarni asosiy fizikaviy-mexanik xususiyatlari keltiriladi

1.5-jadval

Fizikaviy va mexanik xususiyatlar	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Buzulish kuchlanishi, MPa		
Cho'zilishda	9.8-16.7	21.6-32.4
Egilishda	11.8-16.7	19.6-39.2
Uzilishdagi nisbiy uzayish, %	500-600	300-800
Cho'zilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	147-245	540-981
Egilishdagi qayishqoqlik moduli, MPa	118-255	636-735
Brinell bo'yicha qattiqlik, MPa	13.7-24.5	44.2-63.8
180° C egilish soni	3000	1500-2000

Doimiy (statistik) og'irlikni uzoq ta'siri natijasida polietilen deformatsiyalanadi. Quyi zichlikli polietilenni uzoq vaqtli baquvvatlik chegarasi 2.45 MPa, yuqori zichlikli polietilenniki esa 4.9 MPa ga teng.

Uzoq vaqt kuchlanish xolatida ishlatiladigan polietilen maqsulotlarini yorilish extimoli bor.

Molekula massasini ortishi, kristallik darajasini va polidisperslikni kamayishi bilan polietilenni yorilishga chidamliligi ortadi.

Polietilenni issiqlik xossalari quyida keltirilgan.

1.6-jadval

Polietilenni issiqlik xossalari	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
Suyiqqlanish xarorati, °C	105-108	120-130
Haroratbardoshlik, °C	108-115	120-135
Issiqlik o'tkazuvchanlik, $Vt/(m \cdot K)$	0.29	0.42
Issiqlik ta'sirida chiziqli kengayish koeffisienti 0-100°C o'rtasida, 1/grad	$(2.2-5.5) \cdot 10^{-4}$	$(1-6) \cdot 10^{-4}$
Issiqlik ta'sirida xajmiy kengayish koeffisienti 50-100°C o'rtasida, 1/grad	$(6.0-16.0) \cdot 10^{-4}$	$(5-16.5) \cdot 10^{-4}$
Mo'rtlik xarorati (suyuqbardoshlik), °C	-80 dan -120 gacha	-70 dan -150 gacha

Polietilen zichligini ortishi bilan uning suyuqlanish xarorati ortadi.

Quyi zichlikli polietilendan olingan maqsulotlar 60C⁰ gacha, yuqori zichlikli polietilendan olinganlari esa 100C⁰ gacha ishlatilishi mumkin. Polietilen -70C⁰ da mo'rt bo'ladi va shuning uchun undan olingan maxsulotlar qattiq sovuq sharoitlarida xam bemalol ishlatilishi mumkin.

Polietilen yuqori suvga chidamlilik xossalarini namoyon etadi. Quyi zichlikli polietilen 20C⁰ da 30 kun davomida 0.04%, yuqori zichlikli polietilen esa 0.01-0.04% suv shimadi.

Polietilen yaxshi dielektrik xisoblanadi. Quyida uning elektr xususiyatlari keltirilgan

1.7-jadval

Xossalari	Quyi zichlikli polietilen	Yuqori zichlikli polietilen
1 m/s da dielektirik sindiruvchanlik	2.2-2.3	2.1-2.4
Dielektrik yo'qotishning tangens burchagi (1 m/s va 20°C da)	$(2-3) \cdot 10^{-4}$	$(2-5) \cdot 10^{-4}$
Solishtirma elektor qarshiligi		
Sirt, Om	$<10^{14}$	$<10^{14}$
Hajmiy, Om*m	10^{15}	10^{15}
1 mm qalinlikdagi buyumni o'zgaruvchan tokka nisbatan elektor mustaxkamligi, kV/mm	45-60	45-60

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki polietilenni zichligi uning elektr xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Polietilen oddiy sharoitda (xona xaroratida) organik erituvchilarda erimaydi. Faqat 70°C dan yuqorida xlorli va aromatik erituvchilarda bo'kadi xamda eriydi. U kontsentrlangan kislota, ishqor va tuz eritmalari ta'siriga chidamli.

Kontsentrlangan sulfat va xlorid kislotalari polietilenga umuman ta'sir etmaydi, azot kislotasi va unga o'xshash kuchli oksidlovchilar polietilenni parchalab tashlaydi.

Atmosfera, quyosh nurlari ta'siriga va issiqlik ta'sirida oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida, polietilenga turli xil barqarorlovchilar qo'shiladi.

Polietilen past xaroratda (110-130°C) yumshaydigan termoplastik polimer bo'lib, xona sharoitida bironta ham erituvchida erimaydi. Aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda 70°C dan yuqorida bo'kadi va eriydi. Polietilen kontsentrlangan kislota va ishqorlar, tuzlarning suvdagi eritmalari ta'siriga ham chidamli. Atmosfera ta'siriga hamda issiqlikda oksidlanishga chidamliligini oshirish maqsadida polimer tarkibiga turli xil stabilizator-antioksidantlar qo'shiladi. Polietilen radiotexnikada va televizor qismlarini olishda elektroizolyatsiya materiali sifatida, korroziyaga chidamli qoplamlar, turli maqsadlarda ishlatiluvchi plyonkalar, idishlar olishda, qog'oz, yog'och, matolarni shimdirishda va x.k. ishlatiladi. Mexanik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshiligi, qayta ishlashning osonligi hamda arzonligi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan sintetik polimerlar orasida polietilenni birinchi o'ringa chiqib olishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda polietilen olishning bir qancha usullari mavjud ;

- Yuqor bosimda
- Past bosimda
- O'rta bosimda
- SKLERTEK texnologiyasi bo'yicha

Adabiyotlarda ular quyidagicha belgilanadi (ingliztilida) LDPE; HDPE; MDPE va LLDPE.

1. Yuqori bosimli polietilen (past zichlikli)

Sanoatda yuqori bosimli (HDPE) polietilenetileni 200-280°C da 150-300 MPa bosim ostida kondensatsiyalangan gaz fazasi da radikal polimerlanish katalizatorlar

ishtirokida polimerlab olinadi. Olingan polimer 920-930 kg/m³ zichlikka 80000-500000 o'rtacha molekular og'irlikka va 50-60 % kristallik darajasiga ega bo'ladi.

2. Past bosimli polietilen (yuqori zichlikli)

Sanoatda past bosimli (LDPE) polietilen gaz va suyuq fazalarda ionli yoki koordinatsion ionli polimerlash orqali olinadi. Jarayon (0.3-0.5)-(2-2.5) MPa bosimda (70-80) -(90-105) °C xaroratda Sigler - Natta yoki xromorganik, xromoksidlari kabi katalizatorlar ishtirokida olib boriladi.

Bu usulda olingan polietilenning molekula massasi, olish usuli va ishlatilgan katalizator xiliga bog'liq bo'ladi. Sigler - Natta katalizatorlari ishtirokida molekula massa 2-3 mingga teng polimerlar olish mumkin.

Sanoatda asosan 80 000-500000 molekula massasiga ega polietilen ishlab chiqariladi. Molekula massasi juda yuqori bo'lgan polietilenni qayta ishlashni maxsus usullari ishlab chiqilgan.

Suyuq faza va past bosimda (yuqori zichlikli) polietilen olish

Past bosimdagi (PB) polietilen bu usul bilan etilenni 0.3-0.5 MPa bosimda, 70-80°C da, organik erituvchilar (benzin va x.k.) muxitida polimerlab olinadi. Polimerlanish Sigler-Natta katalizatorlari (dietilalyuminiyxlrid va titantetraxloridi) ishtirokida olib boriladi.

3. O'rtacha bosimda olinadigan polietilen (yuqori zichlikli)

O'rtacha bosimda (MDPE) polietilen, etilenni 130-150 °C da , 3,5-4 MPa bosimda erituvchi muhitida alyumosilikat yuzasiga o'tkazilgan o'zgaruvchan valentli metall (Cr, Mo, V) oksidlaridan iborat katalizatorlar ishtirokida polimerlab olinadi. Katalizator tashuvchisi sifatida ishlatiladigan alyumosilikatni 75-90 % i kremniy(II) oksididan iborat.

Xromoksidi asosidagi katalizator, alyumosilikat tashuvchini xrom(III) oksidini suvdagi eritmasi bilan shimdirib tayyorlanadi. Xromoksidi bilan shimdirilgan tashuvchi 100-200 °C da quritiladi. Xromoksidlarini optimal miqdori 5-6 % ni tashkil etadi.

Katalizatorni faolligini oshirish maqsadida ishlatishdan avval uni 500-550°C da 5 soat davomida quruq havo bilan qizdiriladi. Ushbu sharoitda ishlov berilgan katalizator tarkibidagi 80-90 % Xrom 6 valentli holda bo'ladi. Faollashtirilgan katalizator sovutilib

yaxshilab berkitilgan idishda saqlanadi.

Usulni kamchiligi sifatida polimerni ajratib olish va tozalash bilan bog'liq qo'shimcha jarayonlarni ortishi hamda erituvchining ko'p sarf bo'lishi va regenirlash bilan bog'liq yangi jarayonlarni qiyinligini ko'rsatish mumkin.

4. SKLERTEK texnologiyasi bo'yicha turli markali polietilen olish.

Bu texnologiya bo'yicha polimerlanish jarayoni reaktorlarda siklogeksan erituvchi muxitida 17 MPa, 300°C xaroratda va Sigler-Natta kompleks katalizatorlar ishtirokida amalgam oshiriladi. Ushbu texnologiyaning o'ziga xosligi shundaki, texnologiya bo'yicha sintez qilingan polietilen har xil zichlikka va strukturaga ega bo'ladi. Ushbu texnologiya bo'yicha chiziqsimon past zichligi (LLDPE) chiziqsimon o'rta zichlikli (MDPE) va chiziqsimon yuqori zichlikli (HDPE) polietilen turlarini ishlab chiqarish mumkin. Polimerlanish reaksiyasi juda katta tezlikda borishi sababli, reaktorlarni xajmi uncha katta bo'lishi shart emas, chunki monomerni reaktorda polimerga aylanishi uchun bir necha sekund yetarlidir. Texnologik jarayon aniq bir rejimda ishlaganda 1 minutda 270-290 kg polimer ishlab chiqariladi. Ushbu texnologiya bo'yicha olinayotgan polimerning zichligini berilayotgan somonomer buten-1ni miqdorini o'zgartirish yordamida molekula massasi va molekula massaviy taqsimotini esa polimerlanish reaktorlarga uzatilayotgan vodorodni berilish joylari va miqdorini o'zgartirish orqali rostlanadi.

Sanoatda polietilen $\text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl} \cdot \text{TiCl}_4$ katalitik kompleksi ishtirokida yarim uzluksiz usulda olinadi. Uchetilalyuminiyga nisbatan polimerlanishda dietilalyuminiyxlordni ishlatish ancha qulay. Chunki dietilalyuminiyxlord oson tozalanadi, ancha arzon va eng muximi yonish xamda portlashga moyilligi ancha kam.

Polietilenni qayta ishlash

Polietilen termoplastik polimerlarni qayta ishlash usullarini hammasi bilan qayta ishlanishi mumkin: presslash, ekstruziyalash, bosim ostida quyish va h.k. YuB da ishlab chiqarilayotgan polietilenni yarmi parda olishda ishlatiladi. Polietilendan asosan

uy-ro'zqor buyumlari, o'yinchoqlar, santexnikada va boshqa joylarda ishlatiladigan quvurlar, konstruktsion detallar ishlab chiqariladi. Radiotexnika va televideniya, kabel sanoatida, qurilishda elektr izolyatsiya materiali sifatida korroziyaga qarshi qoplama, mato, qog'oz va yog'ochni shimdirishda ishlatiladi.

Xamma markali polietilenlar fiziologik zararsiz bo'lganligidan, ular meditsinada, uy-joy qurilishida, turli xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Plastifikatorlar

Ko'p xollarda polimer materiallarni buyumlarga qayta ishlash polimerni oldindan plastifikatsiyalanganda yengillashadi. Plastifikatsiyalash qayta ishlashni pastroq temperaturada olib borish va mo'rtligi kam, elastikligi yuqoriroq bo'lgan buyumlar olish imkonini beradi. Bu effekt polimer tarkibiga plastifikatorlar deyiluvchi maxsus qo'shimchalar kiritilishi xisobiga erishiladi. Polimer plastikligini oshiruvchi istalgan qo'shimcha plastifikator bo'lishi mumkin. Plastifikatorlar sifatida quyi molekulyar yuqori temperaturada qaynovchi polimerlar bilan aralashuvchi suyuqliklar ishlatiladi. plastifikatorlar erituvchilar va disperslovchilardan kam uchuvchanligi bilan farqlanadi. Plastifikatorlarni ta'siri polimer mokromolekulalarini o'zaro tortilish kuchlarini kamaytirishga asoslangan. Polimerlar plastifikatorlar bilan aralashtirilganda unda bo'kadilar. Bo'kish quyi molekulyar birikmalar molekulasini polimer makromolekulalari orasiga singishi bilan sodir bo'ladi, bunda makrozanjirlar orasidagi masafa ortadi va ularni ta'sirlashishi kamayadi. Shu bilan bir vaqtda polimer molekulalari zvenolari va plastifikator molekulalari o'rtasida bog'lar xosil bo'ladi. Natijada polimerlarni qovushqoqligi va shishalanish temperaturasi kamayadi. Polimerni qovushqoqligini kamayishi (plastikligini ortishi) uni nisbatan past temperaturada qayta ishlash imkonini beradi.

Plastifikatorlarni guruxlarga bo'lish odatda ularni kimyoviy tarkibi, yuqori molekulyar birikmalarni eritish va ular bilan aralashuvchanligi bo'yicha bo'ladi.

Kimyoviy tarkib plastifikatorlar quyidagi guruxlarga bo'linadilar: murakkab efirlar (ftalatlar, fosfatlar va boshqalar), uglevodorodlar va ularni xosilalari, o'simlik moylari va ularni modifikatsiyalash maxsulotlari (odatda epoksidlash xisobiga).

Yuqori molekulyar birikmalarni eritish qobiliyati. Plastifikatorlar yuqori molekulyar birikmalarni eritishi va eritmasligi mumkin. Plastifikator sifatida qo'llaniluvchi birikmalarning aksariyati erituvchilar guruxiga kiradi.

Eritmaydigin plastifikatorlar polimer makromolekulalari bilan solvatlanmaydilar va polimerda aloxida qo'shimcha sifatida bo'ladilar. Eksploatatsiya qilish va eskirish jarayonida ular polimerdan «terlab» chiqib ketadilar va shu sababli ularni samaradorligi kamdir. Eritmaydigan plastifikatorlar guruxiga (xlorlangan difenil), kaechor moyi, kasterol (kaechor moyini oksidlash maxsuloti), bo'lishga ayrim kam qutbli birikmalar va aralashmalar. Erimaydigan plastifikatorlarni erituvchi plastifikatorlar bilan birga ishtatilganda ularni samaradorligi ortadi. Bunda erituvchi plastifikatorlar polimer makromolekulalari bilan solvatlanadilar, erimaydigan plastifikator molekulalari esa solvat qobig'ini to'ldirib, sistemani umumiy samaradorligini oshiradilar.

Odatda erimaydigan plastifikatorlar kam qutbli, kimyoviy barqaror birikmalar bo'lib polimerlarga qimmatli eksploatatsion xossalarni beradilar.

Polimer bilan aralashuvchanlik. Ma'lum bir yuqori molekulyar birikma uchun ushbu plastifikatorni qo'llash mumkinligini amaliy mezon bo'lib xizmat qiladi. Aralashuvchanlik chegarasi bu aralashmaslik belgilari (polimer sirtini yopishqoq bo'lishi, terlashi) namoyon bo'lmaydigan plastifikatorni optimal miqdoridir. Ayrim plastifikatorlarni ayrim polimerlar bilan aralashuvchanligi quyidagichadir.

Plastifikatorlarni ayrim polimerlar bilan aralashuvchanligi

1.7-jadval

Plastifikatorlar	Aralashuvchanlik, massa.qism / 100 massa.qism polimer							
	Alkid qatori	Epoks id qatori	Poliur etan	Polivi nilxlo rid	Asetil esselu loza	Atset obutir atesel uloza	Selulo zanitr ati	Etilsel uloza
Butilbenzilftalat	50	25	25	100	10	100	100	100
Dibutilftalat	70	25	25	100	25	100	100	100
Di (g-etilgeksil) adipinat	50	1	15	100	1	25	35	100
Di (2-etilgeksil) ftalat	25	1	25	100	1	50	100	100
Triklozolfasfod	70	25	25	10	25	30	100	70
Trifenilfosfat	50	10	10	20	35	50	75	30

Olinishi. Murakkab efirlar turkumidagi plastifikatorlar kislotalarni mos spirtlar bilan to'g'ridan-to'g'ri eterifikatsiyalashga asoslangan.

Xossalari. Plastifikatorni samaradorligi va aktivligi uni erituvchanlik ta'siri bilan va kritik temperatura qiymatiga bog'liq. Kritik temperatura bu shunday minimal temperaturaki, undan boshlab yuqori molekulyar birikma bilan plastifikator to'la aralasha boshlaydilar. Masalan kolloksilin va sellyulozani boshqa efirlariga nisbatan plastifikatorlarni samaradorligi aralashishning kritik temperaturasi qiymati qancha kichik bo'lsa, shuncha yuqori bo'lishi aniqlangan. Plastifikatorlar aralashmasi qo'llanilganda ularni shunday nisbati takidlanadiki, bunda eng kichik aralashuvchanlik temperaturasi va samarali plastiklash ta'siri kuzatiladi.

Plastifikatorni samaraliligi (aktivligi) 2 xil usulda ifodalanadi: polimerni belgilangan darajadagi elastiklik darajasini olish uchun zarur bo'lgan plastifikator qo'shilganda erishilgan polimerni elastiklik darajasi.

Plastifikatorlarni samaradorligi faqat ularni erituvchanlik qobiliyati bilangina boqliq bo'lmay, balki ularni kimyoviy tuzilishiga xam bog'liq. Masalan, plastifikatorlar tarkibida alkil guruxlarni bo'lishi birikmalarga yaxshi plastifikatsiyalovchi xususiyatni beradi, bundan farqli aromatik guruxlarning bo'lishi (masalan, naftalin turidagi) plastifikatsiyalovchi xususiyatini kamayishiga va plastifikatsiyalangan sistemani sovuqqa chidamliligini yomonlashuvigi olib keladi. Sovuqqa chidamlilik tarmoqlangan uglerod zanjirlaridan tashkil topgan plastifikatorlar qo'llanganda xam kuzatiladi.

Plastifikatorlarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

Polimer bilan aralashib, ekspluatatsion barqarorlikka ega bo'lgan sistema xosil qilishi;

Kam uchuvchanlik;

Rangsizlik;

Xidning yo'qligi;

Ekspluatatsiya qilishning eng quyi temperaturalarida xam plastifikatsiyalash ta'sirini saqlash;

Polimer komponentlarnikidan kam bo'lmagan kimyoviy bardoshlik.

Bundan tashqari qo'shimcha talablar xam qo'yiladi. Masalan, polimer tarkibidan erituvchilar, suyuq muxitlar, yuvuvchi vositalar, oziq-ovqat maxsulotlari bilan ekstraktsiya qilinmasligi, dielektrik, optik va boshqa ayrim xossalarni dastlabki darajada saqlash kabilar.


Plastifikatorlarni polimer kompozitsiyalarini texnologik xossalariga ta'sirining samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan baxolanadi: suyuqlanish temperaturasi va oqish temperaturasi, qovushqoqlikni plastifikator kontsentratsiyasidan bog'liqligi, shishalanish temperaturasi pasayish darajasi.[2]

1.3. Ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va parametrlari

Ekstruziyalash usuli bilan plyonka olish texnologiyasi

Termoplastik polimerlarni oquvchan xolatga o'tkazib, xar xil profilga ega bo'lgan teshiklar orqali uzluksiz siqib chiqarish – ekstruziyalash deb ataladi.

Bu usul orqali plyonka, list, truba, xar xil kesimga va konfiguratsiyaga ega bo'lgan profil va setka olishda keng qo'llaniladigan usullar qatoriga kiradi. Quyidagi rasm



Burchakli xalqasimon kallakni sxemasi

1-kallakni rostlash moslamasi

2-dorn

3-donani ushlab turuvchi

4-yengni puflash uchun xavo yuboruvchi kanal


1.4-rasm

Ekstrudorning bosh qismiga o'rnatilgan kallak orqali suyuqlik siqib chiqariladi. Kallak oqib chiqayotgan termoplastga ma'lum tashqi shakl berish uchun xizmat qiladi. Kallakdan chiqayotgan buyum, plyonka olishda "yeng" (rukava) ko'rinishida salqin xavo yoki boshqa usullar ta'sirida sovib, qotadi. Plyonka olishda siqib chiqarish operatsiyasi bilan puflash operatsiyasi birgalikda olib boriladi. Bu usul ekstruziya yo'li bilan plyonka olish deb ataladi. Bunda "yeng" ko'rinishida siqib chiqarilayotgan polietilen suyuqlanma ichiga bosim ostida xavo yuboriladi. Xavo bosimi tufayli ekstruder bosh qismidan chiqib

kelayotgan “yeng” kengayib, ma'lum qalinlik va kenglikdagi plyonkaga aylanadi. Bu jarayon uzluksiz davom etib, olingan plyonka maxsus uskunalar orqali tortib barabanlarga o'raladi. Jarayon quyidagi operatsiyadan iborat:

- 1)Xom ashyoni tayyorlash va quritish.
- 2)Oquvchan xolatga o'tkazish va uni bir jinsli suyuqlanma xosil qilish (gomogenlash).
- 3)“Yeng”ni olish (formirovanie).
- 4)Plyonkani orientatsiyalash va sovutish.
- 5)Plyonkani baraban orqali o'rash.
- 6)Plyonkaning sifatini aniqlash.

Texnologik sxemasi



1-xar xil qo'shimchalar uchun oraliq idishlar; 5-qo'shimchalarni uskunaga; 8-ekstruder; 9-kallak; 10-plyonkani tortish uchun uskunaga 14-statik elektr zaryadlarni oldini olish moslamasi.

1.5-rasm. Polietilen plyonka ishlab chiqarish texnologik sxemasi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, quritilgan polimer granulatsi pnevmotransport orqali ekstruder bunkeriga uzatiladi. Granula bunkerdan ekstruder silindriga tushadi va shnekni vintkalar (mejitkovoe) ora bo'shligini to'ldiradi. Aylanayotgan shnek granulani oldinga qarab 2 va 3 zonalarga suradi. Buning natijasida granula oquvchan xolatga o'tadi va formani (xalqasimon tirqish) kallakni to'ldiradi. Kallakda suyuqlanma dorna tufayli perimetr bo'yicha tarqaladi va formadan chiqishda silindr shakliga ega bo'ladi (qopcha

yoki “yeng” shaklida). Suyuqlanmaga turg’un forma berish uchun uni tashqi tomondan xavo yordamida sovutiladi, qotish momenti “yeng”ni xiralashuvi paydo bo’lishi bilan belgilanadi. Ya’ni kristallanish chegarasi (agar kristallanuvchi polimer bo’lsa, unda kristallizatsiya jarayoni sodir bo’ladi). Ekstrudat “yeng” uzunasiga maxsus valiklar yordamida tortiladi va shu bilan bir qatorda “yeng” ichidagi xavo yordamida puflanadi. “Yeng” ichiga xavo vaqti-vaqti bilan berilib turiladi. Chunki xavo diffuziya va utedka tufayli “yeng” ichida kamayishi mumkin.

Keyin plyonka barabanga o’raladi yoki ikki tomondan qirqiladi. Qirqilgan “yeng”ning chetlari qayta ishlanadi va granula xoliga keltirilib, ishlatilayotgan toza granulaga qo’shiladi.

Plyonka ishlab chiqarishda uzun shnekli ekstruderlar qo’llaniladi. Bunaqa ekstruderni qo’llashdan maqsad, suyuqlanmada pulsatsiya (tepib turish) ni yo’qotishdir. Xo’llaniladigan ekstruderlarning ko’rsatkichi L/D 20-25; D 20-90 mm. Tortib olingan plyonkani qalinligi 10 dan to 300 mkm gacha bo’lishi mumkin. Qalinligini o’zgaruvchanligi +10%.

Qolipning asosiy xarakteristikasi – suyuqlanmani oqishiga qarshilik ko’rsatish koeffitsenti.

Qolipdan oldin quyilgan suyuqlanmani filtrlash setkasining ishlash qobiliyati bosimning o’zgarishi bilan aniqlanadi. Agar setkaning qarshiligi ko’paysa (ifloslanishi tufayli), unda uni almashtirish lozim.

Umumiy qilib aytilganda, ekstruderning ishlash qobiliyati unumdorligi talab qilinayotgan moshnostga nisbati bilan aniqlanadi.

Xozirgi zamon ekstruderlarida shunday jixozlar o’rnatilganki, ular tufayli zonalar bo’ylab xaroratni nazorat qilish va avtomatik ravishda uni regulirovka qilish; suyuqlanma bosimini setkagacha va undan keyin nazorat qilish; ekstrudat va plyonkaning qalinligini nazorat qilish; shnekni aylanish chastotasini nazorat qilish; avtomatik ravishda xavoni “yeng” ichiga berish va boshqalarni amalga oshirish mumkin.

Bir xil qalinlikka ega bo’lgan plyonka olishda siqilgan xavoni bir tekis va o’zgarmas bosim ostida yo’naltirish muxum axamiyatga ega.

Plyonkaning qalinligi va kengligi “yeng” ichiga xavoni ko’p yoki oz puflash yo’li bilan boshqarib turiladi. Tajribalar shuni ko’rsatadiki, “yeng ” puflash darajasi 250-300%dan oshmasligi yoki boshqacha qilib aytganda, puflangan “yeng”ning diametri xalqasimon tirqish diametridan 2,5-3 marta ko’p bo’lishi lozimligini ko’rsatadi.

Shu shartga rioya qilinganda puflangan plyonka qalinligi mashinaning bosh qismidagi xalqasimon tirqishdan chiqayotgan parda qalinligidan taxminan 9-10 marta kichik bo’ladi.

Bu usul bilan PE, PP, PS, PA va boshqalardan plyonka olish mumkin. Polietilenning yuqori qovushqoqlik ko’rsatkichi PTR ga ega bo’lgan markalaridan foydalaniladi. Bu ko’rsatkichga ega bo’lgan polietilen “yeng”i turg’un bo’ladi, uni kallakdan tortib olish imkoniyatini beradi.

Undan tashqari polietilenni oldindan quritish lozim, chunki namligi salbiy ta'sir ko’rsatadi.

Texnologik jarayonning to’g’ri borishi uchun quyidagi ko’rsatkichlarga ahamiyat berish kerak:

Siqish darajasiga (stepen sjatiya) — bu ko’rsatkich granula tushayotgan vint kanali xajmining (V_z) dozirovka zonasi kanalining xajmiga (V_d) nisbatan olinadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$K_s = V_z / V_d$$

Puflash koeffitsenti plyonka “yeng”i diametrining (D_e) dorna diametriga (D_d) nisbati bo’yicha aniqlanadi:

$$K_r = D_e / D_d$$

Tortish (vo`tyajka) koeffitsenti plyonkaning xarakat tezligining (V_p) ekstrudatning xarakat tezligiga (V_e) nisbati, ya'ni ekstrudatning kallakdan chiqish tezligi orqali topiladi:

$$K_v = V_p / V_e$$

Plyonkaning qalinligini quyidagicha xisoblash mumkin:

$$B_{pl} = B_e / K_r K_v$$

Bu erda: B_e — ekstrudatning qalinligi;

K_r — puflash darajasi;

K_v — tortish darajasi.

Plyonkalarni polimer materiallarning xossalariga qarab (qattiqligi, termik turg'unligi) xar xil usullar bilan olish mumkin. Eni, usulga qarab polietilendan olingan plyonka 24-32 metrgacha bo'lishi mumkin. PVX dan olingan plyonka odatda valtslash va kalandrlash usuli bilan olinadi va eni 2,5m gacha bo'ladi. Polietilentereftalatdan olingan plyonka xam 2 m enli bo'ladi.

Plyonkalar ko'p qatlamli, ko'p rangli va armirlangan bo'lishi mumkin. Bu materiallarni olishga bir necha ekstruderlarning birga ishlashi (soekstrudero`) orqali erishiladi.

Demak, ekstruziyalash usuli eng ko'p ishlatiladigan usul xisoblanadi. Shu bilan birga valtslash va kalandrlash usuli xam ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan (PVX uchun). Plyonkalar eritmadan quyish (poliv) usuli bilan xam olinishi mumkin. Buning uchun tiniq eritmani sayqallangan yuzaga yoki cho'ktiruvchi vanna orqali uzatib olinadi.

Ekstruziyalash usuli bilan qayta ishlanadigan ayrim termoplastlarning xossalari

1.1-jadval

Termoplastlar	Sochilish Zichligi, Kg/M ³	Ruxsat Etilgan Namlik %	Issiq xavo bilan quritish rejimi
PE-NP	350-500	1,5-3,0	70-80°C; 0,5-1,5 s
PE-VP	400-550	2,5-5,0	80-90°C; 0,5-1,5s
PP	450-550	1,5-3,5	80-100°C; 0,5-1,5s
PVX	450-800	0,5-1,0	70-80°C; 2-4s

Ekstruziyalash uchun qo'llaniladigan termoplastlar markalarini ko'rsatkichi va qo'llanilishi

1.2-jadval

Termoplast markasi	PTR	Qo'llanilishi
PE-np	0,2-1,7	Plyonka, umumiy qo'llanish
PE-vp	2,0-5,0	Qog'oz yoki matoning ustini qoplash uchun
Pmma	0,5-2,5	Quvir, varoqlar
Pp	0,4-0,7	Elektroizolatsiya uchun plyonka olish
Pvx-plastikat	3,0-15,0	Kabellarni izolatsiya qilish uchun

Ekstruziyalash usuli bilan Qayta ishlashning
texnologik rejimlari

1.3-jadval

Termoplast markasi	Xarorat °C	Bosim, setkagacha (setkadan keyin)
Pe-np	110-150	15-25 (10-15)
Pe-vp	130-190	20-30 (13-18)
Pp	180-250	20-30 (15-20)

[3]

1.4 Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar

Polietilen plyonkaga quydagi talablar qo'yiladi.

- plyonka shaffofligi
- quyosh nuriga chidamlilik
- cho'ziluvchanligi
- agressiv muxitga bardoshliligi

Polimerlarning fizikaviy va mexanik xususiyatlari ularning ekspluatatsiya sharoitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli quyida plastmassalarning issiqlik-fizik va fizik-mexanik xossalari qanday aniqlanishiga to'xtalib o'taman. Bu ko'rsatkichlar ularning ishlab chiqarishda standart belgilar bilan baxolanadi.

Plastmassalarning issiqlik-fizik xossalari.

Issiqlikka chidamlilik- deganda polimer materiallarning yuk ta'sirida o'zining mexanik puxtaligini yo'qotadigan eng yuqori xarorat tushuniladi. Bunda ularning strukturasida qech qanday kimyoviy o'zgarish ro'y bermaydi.

Polimer materiallarning qanday xarorat chegarasida ishlay olish qobiliyatini aniqlash ularning issiqlik-fizik xossalari ichida muhim o'rin tutadi. Polimer materiallarning xaroratga bog'liq xossalari katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgani uchun ularni aniqlash yo'llari mukammal o'rganilgan va buning uchun zamonaviy asboblari mavjud.

Polimer materiallarning issiqlikka chidamliligi, material turiga qarab, xar xil usullar bilan aniqlanadi. Masalan, Martens usuli bilan reaktoplastlarni (qattiq va issiqlikka chidamliligi), eguvchi kuch orqali issiqlikka chidamliligi aniqlanadi. Vika usuli bilan konstruktsion termoplastlarga botiruvchi kuch ta'sirida bu ko'rsatkich aniqlanadi.

Plastmassalarning fizik-mexanik xossalari

Plastmassalarning xajmiy og'irligi bo'lishiga qaramay ular ma'lum mustaxkamlikka ega. Plastmassalarni ishlatish paytida ularga turli xil kuchlar (nagruzka) ta'sir qilishi mumkin. Bu vaqtda buyumda xar xil deformatsiyalar (cho'zilish, egilish, siqilish) paydo bo'ladi. Shuning uchun plastmassadan tayyorlangan buyumlar bunday deformatsiyalarni vujudga keltiruvchi kuchlarga bardosh berish yoki bera olmasligini bilish muximdir.

Plastmassalarning mexanik xossalari ularni zo'riqish ostida sinash orqali topiladi.

Plastmassa namunalarining mexanik xossalarini ikki yo'nalish bo'yicha olib borish mumkin:

- a) qisqa muddatli nagruzka ostida mustaxkamlikka sinash;
- b) qisqa muddatli nagruzka ostida deformatsiyalanishga sinash;[2]

Polietilen plyonka




Uskuna tanlash

Экструдер серии МИНИ для производства пленки ПНД

ТЕХНИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ

Модель	SJ-45-MINI	SJ-50-MINI
Страна-производитель	Китай:	
Диаметр шнека	45	50
Соотношение L/D	28:1	28:1
Производительность, кг/час	30	40
Ширина рукава, мм	100 – 400	150 - 600
Намотчик	Однопостовой с ручной сменой рулонов	
Потребляемая мощность, кВт	7,5	11
Габаритные размеры (Д*Ш*В), м	2.2 * 1.8 * 2.0	2.2 * 1.8 * 2.5





1.6-rasm. Ekstruderning qirgma ko`rinishi

1-dvigatel; 2-reduktor; 3-reduktor vali; 4-bolt; 5-bunker; 6-shnek; 7-qizdiruvchi plita; 8-bolt; 9-stanina; 10-gaz chiqarib yuboruvchi moslama;

1.5 Xom-ashyo materiallar sarf balansi

Material balansni tuzish loyixasida berilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun smenada, sutkasiga va yiliga zarur bo'lgan xom-ashyo materiallarni hisoblashdir. Buning uchun:

- a) mahsulot ishlab chiqarishning yillik hajmi: yilga-1200000 pogono/metr plyonka.
- b) texnologik yo'qotishlar va nuqsonlar me'yori xisoblanadi
- g) retseptura tarkibi hisobi

$$1. G = m_0 * K \text{ (qaytar + qaytmas)}$$

G – 1 metr maxsulotning nominal massasi.

m_0 – 5 gr maxulotnin minimal og'irligi.

K – qaytar va qaytmas jarayonlar koefitsienti.

1)Ishlab chiqarishdagi qaytar va qaytmas homashyoning yo'qotilishlari jadvali.

1.8-jadval

№	Yo'qotilish jarayonlari Turlari	Qaytar	Qaytmas
1.	Tashishdagi (transportirovka)	-	0.005
2.	Xom-ashyoni quritish	-	0.05
3.	Aralashtirish	0.4	0.5
4.	Ekstruziyalash	0.3	0.2
5.	Texnologik rejimlar	1	2
	Yo'qotishlar yig'indisi	1,7	2.755

$$1,7 + 2,755 = 4,455$$

$$K_1 = 4,455 - 1.0475$$

$$5 * 1,0455 = 5,24$$

2) Yillik umumiy sarf

$$G_0 = G * Q$$

$$G_0 = 5,24 * 1200000 = 6288000 \text{ kg}$$

$$6288000 * 5,24 = 32949,120 \text{ kg}$$

$$32949,120 / 1000 = 32,949$$

3) Maxsulot uchun retsept.

Retseptura

1.9-jadval

№	Materiallar	100 kg	%
1.	PE 100 kg	6287,37126	99,990001
2.	Plastifikator 10gr yoki (0,001) kg	0,6287	0,009999
	Jami:100,01	6288	100%

Hisoblaymiz:

$$100,01 \dots 100$$

$$100 \dots X=99,990001$$

$$100,1 \dots 0,01$$

$$100 \dots X=0,009999$$

4)PE va plastifikator qo'shiladi

$$1- 6288 \dots 100 \%$$

$$X \dots 99,990001 \quad X=6287,37126$$

$$2- 6288 \dots 100 \%$$

$$X \dots 0,009999 \quad X=0,6287$$

5)Qaytar va qaytmas jarayondagi yo'qotishlarni xisoblab topamiz

$$K_1 = G_{0 \text{ qaytar}} 6288,000 * 0,017 = 106,896$$

$$K_2 = G_{0 \text{ qaytmas}} 6288,000 * 0,0275 = 172,92$$

$$106,896 + 172,92 = 279,816$$

6) Xar bir jarayondagi yo'qotishlarni xisoblab topamiz

1) Tashish jarayoni

$$279,816 - 100$$

$$x - 0.005 \quad x = 0,014 \text{ qaytmas}$$

2) Xom-ashyoni quritish

$$279,816 - 100$$

$$x - 0.05 \quad x = 0.14 \text{ qaytmas}$$

3) Aralashtirish

$$279,816 - 100$$

$$x - 0.4 \quad x = 1,12 \text{ qaytar}$$

$$279,816 - 100$$

$$x - 0,5 \quad x = 1,4 \text{ qaytmas}$$

4) Ekstruziyalash

$$279,816 - 100$$

$$x - 0.3 \quad x = 0,84 \text{ qaytar}$$

$$279,816 - 100$$

$$x - 0.2 \quad x = 0.56 \text{ qaytmas}$$

5) Texnologik rejimlar


$$279,816 - 100$$

$$x - 1 \quad x = 2,8 \text{ qaytar}$$

$$279,816 - 100$$

$$x - 2 \quad x = 5,6 \text{ qaytmas}$$

7)



1.9-jadval

Qaytmas	Qaytar
0.014	-
0.14	-
1,4	1,12
0,56	0,84
5,6	2,8
7,714	4,76

Korxonada uskuna SJ-45 Mini

Ish soati 30 kg/soat

Korxona bir smena ishlaydi

26 kunda 1200000 pogona/metr ni ishlab chiqaradi

1.6 Texnologik jarayonda asosiy jihozni tanlash va uning issiqlik balansini xisoblash.

$$Q = \frac{A_1 * K * n}{K + B_1 + C_1}$$

Shnek quvvatini topish formulasi.

Q-ekstruder quvvati

K-galovka formulasini diametrik koefisienti

n-shnekka aylanish chastotasi

A,B,C-to'g'ri va teskari oqimlarni shnek qadamlarini asosidagi xajmi.

$$A_1 = \frac{\pi^3 * (t - \lambda e) \delta}{a + t^2 * b}$$

$t = (0,8:1,2) * D$

λ – shnekda 1 ta tish soni (qavati) odatda 1 ga teng bo'ladi.

δ – shnek parametrlari geometrik koefisienti.

$$\delta = 1 - \frac{6,9D}{2(h_2 - h_3)} * \lg \frac{h_2}{h_3} + \frac{D^2}{2h_2 * h_3}$$

$$a = \frac{\pi^2}{h_2 * h_3} * \left[\frac{D(h_2 + h_3)}{2h_2 * h_3} - 1 \right]$$

$$b = \frac{2,3}{(h_2 - h_3 * D^3)} \lg^* \frac{h_2(D + d_2^3)}{h_3(D + d_1)} + \frac{2h_2h_3 * (h_2 + h_3) * D}{2D^2 * h_2^2 * h_3^3}$$

$$h_1 = (0,12 : 0,16) * D$$

$$h_2 = h_1 - \frac{h_1 - h_3}{L} * L_0$$

$$h_3 = 0,5 \left[D - \sqrt{D^2 - \frac{4h_1}{i}(D - h_1)} \right]$$

$$L = 25 * D$$

$$L_0 = L - L_H$$

$$L_H = (0,4 : 0,6) * D$$

L_0 -qizdirish zonasidagi shnekning uzunligi.

L_H -shnekni kuchlanish tushadigan qismi.

i-materialni qizdirish darajasi.

i=1:6 ga teng odatda 2:5 bo'lsa yaxshi

$$d_1 = D - 2h_1$$

$$d_2 = D - 2h_2$$

$$d_3 = D - 2h_3$$

$$V_{yuk} = \frac{\pi * (D^2 - d_1^2)}{4} * (t - e)$$

$$V_{doza} = \frac{\pi * (D^2 - d_3^2)}{4} * (t - e)$$

$$i = \frac{V_{yuk}}{V_{doza}}$$

$$B_1 = \frac{\pi * t(t - \lambda * e)}{12 * L_n(a + t^2 * b)}$$

$$C_1 = \frac{\pi * D * \delta^3 * t^2}{10 * eLn\sqrt{\pi^2 * D^2 + t^2}}$$

$$\delta = \sqrt[3]{\frac{B_1 * eLn * \sqrt{\pi^2 * D^2 + t^2}}{\pi * D * t^2}}$$

$$G = \frac{60 * Q * \rho}{10^6}$$

$$D=180 \text{ mm}$$

$$\lambda - 1$$

$$n=100 \text{ ayl/min}$$

$$K=4,18*10^{-3}\text{sm}^3$$

$$L = 25 * 18 = 450\text{sm}$$

$$h_1 = 0,14 * 18 = 2,25\text{sm}$$

$$h_3 = 0,5 \left[18 - \sqrt{18^2 - \frac{4 * 2,25}{5}} \right] = 0,025$$

$$h = 2,25 - \frac{2,25 - 0,025}{450} * 441 = 0,07$$

$$L_0 = L - L_H = 450 - 9 = 441$$

$$L_H = 9$$

$$a = \frac{3,14^2}{0,025 * 0,07} * \left[\frac{18(0,07 + 0,025)}{1 * 0,07 * 0,025} \right] = 8,43$$

$$t = \frac{0,8 + 1,2}{1} * 18 = 36$$

$$b = \frac{2,3}{(0,07 - 0,025) * 5832} * \lg \frac{0,07(18 + 2463,375)}{0,025(18 + 13,5)} + \frac{2 * 0,07 * 0,025 * (0,07 + 0,025) * 18}{2 * 324 * 0,0049 * 0,000625} = 3,041$$

$$\delta = 1 - \frac{6,9 * 18}{2(0,07 - 0,025)} * \lg \frac{0,07}{0,025} + \frac{324}{2 * 0,07 * 0,025} = 0,533$$

$$A_1 = \frac{30,96 * 18 * 0,151 * 324}{10 * 1,44 * 9 * \sqrt{9 * 8596 * 324 * 324}} = 0,02$$

$$Q = \frac{0,03 * 4,18 * 100}{4,18 * 10^{-3} + 0,095 + 0,02} = 2,92 * 10^{-3} sm^3$$

Ekstruder mashinasini issiqlik balansini xisoblashdan maqsad tanlov jixozidagi issiqlik almashinish yuzasini isitkichlarni quvvatini aniqlashdir.

$$N_{\text{mex}} + N_{\text{qiz}} = N_G + N_{\text{yo'qotish}} + N_{\text{sovitish}}$$

N_{mex} -cherviyakni mexanik ish xisobiga ajralib chiqadigan issiqlikka sarflanuvchi quvvat (Vt)

N_{qiz} -mashina material silindiridagi elector isitgichlar quvvati.

N_G -silindir ichidagi polimerni qizdirish uchun sarflanadigan quvvat.

$N_{\text{yo'qotish}}$ -silindir yuzasidan atrof muxitga yo'qotiluvchi issiqlik quvvati.

N_{sovitish} -cherviyak kanalini sovitish uchun sarflangan issiqlik quvvati.

$$N_{\text{mex}} = 3,2 \cdot 10^{-4} \cdot Q \cdot C \cdot (T_2 - T_1)$$

$$N_{\text{mex}} = 3,2 \cdot 10^{-4} \cdot 2,92 \cdot 10^{-3} \cdot 2,4 \cdot (270 - 30) = 5382,144 \cdot 10^{-1}$$

Q -ekstruderni unumdorligi kg/soat

C -polimerni solishtirma issiqlik sig'imi J/(kg*K)

$T_1 - T_2$ -yuklash va dozalash zonasidagi polimer xarorati.

$$N_G = Q \cdot C \cdot (T_2 - T_1) / 3600$$

$$N_G = 2,92 \cdot 10^{-3} \cdot 2,4 \cdot (270 - 30) / 3600 = 0,4672 \cdot 10^{-3}$$

$$N_{\text{yo'qotish}} = F \cdot \alpha \cdot \Delta T$$

$$N_{\text{yo'qotish}} = 8,1 \cdot 10,125 \cdot 25 = 2050,3125$$

F -silindir yuzasi m^2

α -issiqlik uzatish koefisenti

ΔT -temperaturalar farqi

$$N_{\text{sovitish}} = G_{\text{suv}} \cdot C_{\text{suv}} \cdot \Delta T_{\text{suv}}$$

$$N_{\text{sovitish}} = 5 \cdot 4,18 \cdot 10^3 \cdot 25 = 522,5 \cdot 10^3$$

G_{suv} -sovuq suv sarfi kg/sek

C_{suv} -suvning issiqlik sig'imi $4,18 \cdot 10^3 \text{ J/kg} \cdot \text{K}$

ΔT -suvning boshlang'ich va oxirgi temperaturalar farqi

$$N_{\text{qiz}} = N_G + N_{\text{yo'q}} + N_{\text{sovit}} + N_{\text{mex}}$$

$$N_{\text{qiz}} = 0,4672 \cdot 10^{-3} + 2050,3125 + 522,5 \cdot 10^3 - 5382,144 \cdot 10^{-1} = 2808,86 \cdot 10^{-1}$$

$$N_{\text{farq}} \geq N_{\text{xisob}}$$

$$8191,004 \cdot 10^1 \geq 2573,2797 \quad [11]$$

**Ishlab chiqarishni
avtomatlashtirish.**

2. Texnologik jarayonni avtomatik boshqarish.


Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligini muttasil oshirish, mahsulot sifatini yuqori darajaga ko'tarish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishda xafsizlikni ta'minlash va atrof-muhitini muhofaza qilish uchun xizmat qiladigan asosiy omil hisoblanadi.

Xar bir texnologik jarayon (texnologik jarayon parametrlari deb ataluvchi) o'zgaruvchan fizikaviy va kimyoviy kattaliklar (bosim, sarf, temperatura, namlik, kontsentratsiya va x. k.) bilan xarakterlanadi. Texnologik jarayonning to'g'ri o'tishini ta'minlashi uchun muayyan jarayonni xarakterlovchi parametrlarni berilgan qiymatda ushlab turish lozim.

Boshqaruv tizimi asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi, qurilma, o'lchovchi qurilma, rostlagich va ijrochi qurilma. Boshqarish tizimining asosiy vazifasi, maxsulot tan narxini kamaytirish, sifatini va chiqish miqdorini ko'paytirish. Buning uchun texnologik jarayon ko'rsatkichlarini (T , P , F , L , Q va x.k.) kerakli qiymatda (texnologik reglament asosida) boshqarishdir.

Mening bitiruv ishim Stretch plyonka ishlab chiqarish. Asosiy qurilma sifatida bunker oldim va uning matematik modelini (uzatish funktsiya) tuzdim. ABT –hisoblash deganda asosiy maqsad chiqish qiymatini biror talab etilgan kattalikda ushlab turish degani. Biror parametрни kerakli qiymatda ushlab turish, ya'ni uni boshqarish demakdir.

Boshqariluvchi ob'ekt – bunker.



Rasm.2. 1.

X_0 -Kirish qiymati, X_1 - Chiqish qiymati

Jarayondagi o'zgariladigan ob'ektni asosiy ko'rsatkichi:

$T_{o'rt} = 65^{\circ}\text{C}$, $t_{\max} = 70^{\circ}\text{C}$, $t_{\min} = 60^{\circ}\text{C}$ miqdorida o'zgarishi mumkin xaroratni o'zgarish chegarasi $\Delta t_{\pm 5^{\circ}\text{C}}$.

Demak, xaroratni maksimal o'zgarish chegarasi:


$$\Delta t_{\max} = t_{\max} - t_{o'rt} = 70 - 65 = 5^{\circ}\text{C}$$

$$\Delta t_{\min} = t_{\min} - t_{o'rt} = 60 - 65 = -5^{\circ}\text{C}$$

$\Delta t_{\pm 5^{\circ}\text{C}}$.

Rostlagich unumli va maqsadli ishlashi uchun uning koeffitsientlari (K_r , T_i , T_d va x.k.) qiymatini to'g'ri tanlash kerak. Hozirgi kunda bu ABT blok sxemasini kompyuterda MATLAB yordamida yechish mumkin. Bu sxema ko'rilayotgan tizimni to'la akslantirishi uchun tizim ob'ektini (qurilmani) o'tish funksiyasini bilishimiz kerak. Qurilma o'tish funksiyasi $w(k)$ umumiy ko'rinishda yozamiz. Bu yerda T va K qiymatini topish kerak.

Boshqaruv tizimidagi rostlagichlarini koeffitsient qiymatlarini aniqlash uchun tizim modelini kompyutorda akslantirish kerak. Buning uchun tizim modelini tuzish kerak, tizim modeli tizim elementlarining modeli yig'indisidan iboratdir. Masalan, xaroratni boshqarish tizimi : qurilma , datchik, rostlagich va ijrochi mexanizmdan iboratdir.



Rasm 2..2 Qurilma o'tish chizmasi.

Qurilma matematik modelini tuzishning eksperimental usuldan foydalanaman, bunda qurilma kirish qiymatiga turtki berib, chiqish qiymatning o'zgarishini o'lchovchi qurilma yordamida yozib olaman. Bu chizma qurilma dinamikasi deyiladi va bu chizma asosida qurilmani qanday zveno ekanligini aniqlashimiz mumkin, rasm.2. ko'rinib turibdiki qurilma 1-tartibli turg'un (aperiodik) zvenodir. Chizmadagi T - qurilma vaqt doimisi deyiladi va shu vaqtda qurilma bir turg'un xolatdan ikkinichi turg'un xolatga o'tish vaqtini ko'rsatadi. Qurilma vaqt doimisi (T_0) qancha katta bo'lsa qurilma o'tish jarayoni shuncha sekinlashadi va aksincha.

O'tish chizmasi asosida qurilmani differentsial tenglamalari quyidagicha bo'ladi [1]

$$T_0 \frac{dy}{dt} + y = kx$$

Bu yerda x, u kirish va chiqish qiymatlar, k - kuchaytirish koeffitsient $k=u/x$, qurilma doimiylik koeffitsienti T_0 . Tizim modelini kompyutorga kiritish uchun differentsial tenglama ko'rinishdagi modelni, uzatish $W(s)$ (peredatochniy) funktsiyaga aylantiriladi, buning uchun Laplas operatorini qo'llab, chiqish qiymatini kirish qiymatiga nisbati quyidagi ko'rinishga keladi :

$$W(p) = T_0 \frac{dy}{dt} \quad Q \quad y = kx \quad W(p) = \frac{k}{T_0 p + 1}$$

Tenglamadagi T_0 qiymatini topish uchun o'tish chizmasiga urinma o'tkazib T_0 qiymatini topaman, $T_0 = 12$ u xolda qurilma o'tish tenglamasi :


Endi bu grafik yordamida unga urinma o'tkazib K va T koeffitsient qiymatlarini topamiz.

$$K_p = \frac{0,6T}{K_{od}\tau} = 1.3 \quad k=1.3$$


$$T_u = \frac{1,0T}{K_{od}\tau} = 12 \quad t=12$$

$$W(p) = \frac{1.3}{12Tu + 1}$$

Rostlagichning K_r va T_0 koeffitsientlarini qiymatini aniqlash maqsadida boshqaruv tizimining kompyutor modelini tuzaman




2.3-rasm



Rasm.2. 4. Avtomatik boshqarish tizimada o'tish jarayoning chizmasi.

Boshqaruv tizim funktsional chizmalarini chizishda, GOST foydalanib, birlamchi, ikkilamchi asboblarni tanlab tartib bilan joylashtiraman.

Tanlanilgan o'lchovchi va boshqaruvchi asosidar asosida boshqarish tizim funktsional chizmasini chizaman.



2.5-rasm

Misol uchun obyektning funktsional boshqarish chizmasi quyidagicha ko'rinishda (rasm 2.5) bo'ladi. Adabiyot va uslubiy qo'llanmalardan foydalanib, birlamchi, ikkilamchi asboblari, rostlagich, boshqaruvchi va ijrochi qurilmalarni GOST 21.404-85 talabiga mos ravishda tuzildi va o'lchash va boshqarish vositalarining buyurtmalar ro'yxatiga (jadval-1.) yozib qo'yildi.

Nazorat o'lchov asboblari spetsifikatsiyasi

2.1-jadval

Poz №	O'lchanay otgan kattalik	O'chanuv chi. Kat.tavsifi	O'rnatilgan Joyi	O'lchovchi va boshkar. kur.tavsifi.	Soni	Ilova
1-1	Xarorat	-II-	Joyida	Qarsh. termometrii Metran TXAU, 0-200 °C	1	

1-2	Xarorat	-II-	Shitda	Xarotatni o'lchovchi boshqaruvchi qurilma OVN TRM12 , dastur yordamida boshqaradi.	1	
1-3	Xarorat	-II-	Joyida	Elektr ijrochi mexanizm. OVEN TRM -212	1	

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

1. Maxsulot ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan xomashyo miqdorini narxi (so'm) da, bir dona va yillik xajmidagi ifodasi.
2. Maxsulot ishlab chiqarishda ishchilarga beriladigan ish xaqqi. Bir dona maxsulot ishlab chiqarish uchun va yillik maxsulot uchun to'g'ri keladigan o'rtacha ish xaqqi.
3. Ishtimoiy fondga ajratiladigan mablag'. Ish xaqqiga nisbatan, yani ish xaqqining 16 % xisoblanib qo'shiladi.
4. Amortizatsiya ajratmasi 15%. Amortizatsiya ajratmasi asosiy fondga nisbatan xisoblanadi
5. Nakladnoy – bunga quydagilar kiradi. Maxsulot ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan elektr energiyasi , issiq va sovuq suv , gaz va boshqa xarajatlar kiradi.
6. Yuqoridagilar jamlanganda bir dona va yillik maxsulot uchun ishlab chiqarish tannarxi kelib chiqadi.
7. Maxsulot ishlab chiqarilgandan so'ng uning ishlab chiqarish baxosi kelib chiqdi ,endi maxsulotni qadoqlash, transport, reklama xizmatlari xarajatlari qo'shamiz.
8. Bu xarajatlar qo'shilganidan so'ng maxsulotning to'la tannarxi kelib chiqadi.
9. Bizda ishlab chiqarilgan maxsulotimizni to'la tannarxi kelib chiqqanidan so'ng unga foyda yani malum bir (%) to'la tannarxning (15%) miqdori qo'shiladi va maxsulotdan tushadigan sof foyda kelib chiqadi.
10. Maxsulotning to'la tannarxiga foyda qo'shilganida korxona baxosi xosil bo'ladi.
11. Korxona baxosiga uning (20 %) miqdori qo'shiladi. Bu QQS qo'shimcha qiymat solig'i bo'ladi.
12. Barcha xarajatlar soliqlarni qo'shib xisoblaganimizda maxsulotning sotish baxosi kelib chiqdi. Quydagi jadvalda bir donna va yillik maxsulot uchun sotish baxosi qo'shimcha qiymat solig'i, maxsulotning to'la tannarxi , ishlab chiqarish tannarxi va boshqa ko'rsatkichlar qiymatlari berilgan.

Stretch plyonka ishlab chiqarish tannarxining kalkulyatsiyasi.

3.1-jadval

N	Nomlanishi	O'lchov birligi	1 metr uchun	1200000 mert uchun
1	Polietilen	so'm	45	54000000
	Plastifikator	so'm	2,7	3240000
2	Ish xaqqi	so'm	8	9600000
3	Ishtimoiy fond 16 %	so'm	1,28	1536000
4	Amortizatsiya 15 %	so'm	6,6	7920000
5	Nakladnoy	so'm	1,42	1704000
6	Ishlab chiqarish tannarxi	so'm	65	78000000
7	Rek , trans , upakovka	so'm	1	1200000
8	To'la tannarx	so'm	66	79200000
9	Foyda	so'm	10	12000000
10	Korxona baxosi	so'm	76	91200000
11	QQS 20%	so'm	15,2	18240000
12	Sotish baxosi	so'm	91,2	109440000

Yuqoridagi jadvalda maxsulot ishlab chiqarish bo'yicha barcha malumotlar berildi. Endi korxonaning yillik ishlab chiqarish xajmini rentabelligini ko'rib chiqamiz. Korxonaning maxsulot sotishdan olingan yillik tushum, maxsulot ishlab chiqarish tannarxi, maxsulot sotishdan olingan yalpi foyda, maxsulot sotishdan olingan sof foyda, asosiy vositalarni o'rtacha yillik qiymati, aylanma mablag'larni o'rtacha yillak qiymati, korxonaning jami mulki, o'z mablag'lar manbai, qarz mablag' kabi ko'rsatkichlar keltirilgan. Bulardan foydalangan xolda rentabillikni aniqlaymiz.

Maxsulot sotish rentabilligi – korxonani maxsulot sotishdan olingan yalpi foydani maxsulot sotishdan olingan yillik tushimga bo'lamiz. Asosiy vositalar rentabilligi – maxsulot sotishdan olingan sof foydani asosiy vositalar qoldiq qiymatiga bo'lamiz. Aylanma mablag'lar rentabilligi – maxsulot sotishdan olingan sof foydani aylanma mablag'larni o'rtacha yillik qiymatiga bo'lamiz. Ishlab chiqarish tannarxi rentabilligi –

maxsulot sotishdan olingan yalpi foydani maxsulot ishlab chiqarish tannarxiga bo'lamiz. O'z mablag'lar, korxonani jami mulki, korxonani qarz mablag'lari rentabilligini topishda yuqorida bajarilagan yani maxsulotni sotishdan olingan sof foyda nisbatan xisoblaymiz. Bu ko'rsatkichlar quydagi jadvalda ko'rsatilgan

Yillik ishlab chiqarish xajmini rentabilligi

3.2-jadval

T.p	Nomi	O'lchov birligi	Korxona ko'rsatkichlari
1	Maxsulot (ish-xiz) sotishdan olingan tushim.12 oylik.	So'm	109440000
2	Sotilgan maxsulotni (ish-xiz)ish,chiq tannarxi.	So'm	78000000
3	Maxsulot sotishdan olingan yalpi foyda	so'm	31440000
4	Sof foyda	so'm	12000000
5	Asosiy vositalarni o'rtacha yillik qiymati	so'm	52800000
6	Aylanma mablag'larni o'rtacha yillik qiymati	So'm	91000000
7	Korxonaning jami mulki	so'm	206000000
8	O'z mablag'lar manbai	so'm	148000000

9	Qarz mablag'lari	so'm	58000000
10	Maxsulot sotish rentabelligi	so'm	28,7
11	A/V rentabelligi	so'm	26,7
12	A/M rentabelligi	so'm	13.2
13	Maxsulot ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi	so'm	40,3
14	O'z mablag'lar rentabelligi	so'm	22,7
15	Mol-mulk rentabelligi	so'm	5,8
16	Qarz mablag'lar rentabelligi	so'm	20,6

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan birinchisi- asosiy fondni boshlang'ich qiymati. Asosiy fondlarni baxolashni quydagi turlari mavjud. Dastlabki to'la qiymat va qoldiq qiymat baxosi. Dastlabki to'la qiymat orqali belgilangan baxo O_b , asosiy fondlarni sotib olish baxosi S_b , asosiy fondlarni jixozlash mantaj, transport xarajatlari X_T va mantaj xarajatlari X_M ni o'z ichiga oladi.

$$O_b = S_b + X_T + X_M$$

Bu baxo korxonaning asosiy fondlarni sotib olish va ishga tushirish uchun qilingan xarajatlarni ifodalaydi. Asosiy fondni to'la qiymat baxosi ma'lum undan asosiy fondni o'rtacha yillik baxosini ayirib tashlasak asosiy fondni qoldiq qiymat baxosi kelib chiqadi.

Maxsulot ishlab chiqarish xajmi – bunda maxsulotni bir yillik ishlab chiqarilgan maxsulotining xalmi tushiniladi.

Korxonaning sof foydasi malum. Korxonada ishlaydigan ishchilar soni aniqlanadi.

Fond qaytimini topishda maxsulotni yillik ishlab chiqarish xajmini asosiy fondni boshlang'ich qiymatiga bo'lamiz.

Rentabellik – sof fodani asosiy fondni qoldiq qiymatiga bo'lamiz.

Mexnat unumdorligi – yillik ishlab chiqarish xajmini korxona ishchilari soniga bo'lamiz. Xar bir ishchi uchun bir yillik mexnat unumdorligi kelib chiqadi.

O'z mablag'lar qiymati malum. Korxonaning o'zini qoplashini xisoplaymiz. buning uchun asosiy fondni boshlang'ich qiymatiga o'z mablag'larni qo'shamiz va sof foydaga bo'lsak korxona o'zini qoplash muddati kelib chiqadi.

3.3-jadval

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

T.p	Nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar
1	Asosiy fondlar(boshlang'ich qiymati)	so'm	322000000
2	Asosiy fondlar (qoldiq qiymati)	so'm	314080000
3	Maxsulot ishlab chiqarish xajmi	so'm	109440000
4	Sof foyda	so'm	12000000
5	Ishchilar soni	Kishi	6
6	Fond qaytimi	so'm	33,9

7	Rentabellik	%	3,8
8	Mexnat unumdorligi	so'm	18240000
9	O'z mablag'lar	so'm	148000000
10	O'zini qoplash	yil	3,3

[10]

Mexnat muhofazasi va atrof muhitni muhofaza qilish

4.EKOLOGIYA VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Jamiyat va tabiat, inson va yashab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi — insoniyatning abadiy muammolaridan biridir.

Hozirgi fan texnika inqilobi davrida insonning tabiat boyliklaridan foydalanish imkoniyatlari g'oyat kengaydi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning tabiatga va atrof muhitga xavfli zararli ta'siri ancha ortdi.

Masalan, sayyoramizda har yili tashqi muhitga 70 mln. m³ zaharli gaz, 50 mln. tonna metan, 13 mln tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari, suv xavzalariga 32 km³ iflos sanoat suvlari quyilmoqda, 11 mln. gektar o'rmon kesilmoqda va yonib ketmoqda.

Orol va Orolbuyidagi ekologik tanglik keltirayotgan moddiy va ma'naviy zarar butun insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Tojikistonning Surxandaryo bilan qo'shni shahri Tursunzodadagi alyuminiy zavodi Surxandaryoning shu joyga yaqin xalqlari xayoti va salomatligiga hamda tabiatga xavf solmoqda.

Birgina Toshkent shaxrida sutkada 4000 tonna qattiq chiqindi, havoni ifloslantiruvchilar: qattiq zarrachalar 900 t/sut, oltingugurt 300t/sut, azot oksidi 250 t/sut, ko'mir vodorodi 200 t/sut, is gazi 150 t/sut va boshqalar chiqib shaxar havosini buzib boryapti.

Ekologik ahvolni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa omillarga bog'liq.

Plastmassalarni qayta ishlashda atrof-muhitni ifloslantiruvchilarga quyidagilar kiradi: *harorat va mexanik kuch ta'sirida polimerlar destruksiyaga uchrab har xil gazlar ajralib chiqishi; polimer kompozitsiya tarkibiga kiruvchi plastifikatorlar, erituvchilar, choklanish kimyoviy reaksiyalar harorat tufayli uchuvchan modda hosil bo'lishi.*

Plastmassalardan buyum olishda (brak, listniki va boshqalar hisobiga) qattiq chiqindilar hosil bo'ladi. Termoplastlarni maydalab (plyonka, list, buyumlar) mahsus

uskunalarda granulyator yordamida granulga aylantirib toza material bilan qo'shib qaytadan buyum olish uchun qaytadan ishlatish mumkin, ammo termoreaktiv qattiq chiqindilarni qayta ishlash ancha qiyinroq, ularni havo tozaligiga ta'siri bor. Polietilen plyonkalarni qayta ishlash aglomeratsiyalash orqali ham qaytadan foydalansa bo'ladi.

Polimerlardan kompozitsiya tayyorlashda kukun holda har xil to'ldiruvchilar qo'shiladi (saja, kalsiy karbonant va boshqalar), bular changlanib odamning ishlayotgan muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Plastmassalarni qayta ishlash odatda yuqori haroratda olib boriladi, quritish uchun yuqori chastotali elektr toki, infraqizil nurlanuvchilar (izluchitel) qo'llaniladi. Bundan himoya qilish zarur shartlar qatoriga kiradi.

Bilib quyish kerakki, plastmassa chiqindilarini yoqish mutlaqo mumkin emas, chunki hosil bo'ladigan gaz zaharlidir. yerga ko'mish ham yaramaydi, chunki plastmassa chirimaydi, suvga ham tashlab bo'lmaydi, chunki ular suvdan yengil, suv ustida neft singari suzib yuradi.

Ishlab chiqarishdagi atrof-muhitga — bu muhim sanitariya gigiena xarakteristikadir; mehnat sharoiti ishchining holiga, ishchanligiga va uning mehnat unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, ishchining hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash katta ahamiyatga egadir.

Atrof-muhitni quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlash mumkin: ish joyidagi havo harorati bilan (optimal ko'rsatkich $20-25^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi); nisbiy namlik (40-60%); havoning harakat tezligiga (0,2-0,4 m/s); barometrik bosim (normal 101,3kPa); hamda isitayotgan asboblarni issiqlik nurlanishi.

Ishchining hayot faoliyati meteorologik sharoitlarga ham bog'liqdir. Masalan, ishchining termoregulyatsiyasi (odam tanasidagi haroratning doim bir xil bo'lib turishiga xizmat qiladigan fiziologik jarayonlar) ko'rsatkichi muhim o'rinni egallaydi.

Termoregulyatsiya tufayli odam organizmidan ortiqcha issiqlikni chiqarib yuboradi (masalan, odam dam olayotganda bu ko'rsatkich 300 kJ/soat ni tashkil qilsa, u og'ir ish bilan band bo'lganda 1700 kJ/soatni tashkil qiladi).

Ishchining ish sharoitiga salbiy ta'sir qiluvchilardan ish zonasidagi havoda zaharli gazlarning to'planishidir. Buning chegaraviy ruhsat etilgan kontsentratsiyasi PDK ko'rsatkichi orqali nazorat qilinadi.

Plastmassalarni qayta ishlash sexlarida ishchi zonasida havodagi changni chegaralanish kontsentratsiyasi (PDK)

4.1-jadval

Moddalar	PDK, mg/m ³	Xavflilik sinfi
Aminoplastlar	6	3
Polivinilxlorid	6	3
Polipropilen	10	3
PE-ND	10	3
Voloknit	8	4

Termoplast va rektoplastlarni qayta ishlash vaqtida
ajralib chiqishi mumkin bo'lgan moddalar

4.2-jadval

Plastmassalarning turi	Zaxarli moddalar	PDK mg/m ³	Xavflilik sinfi
------------------------	------------------	-----------------------	-----------------

1	2	3	4
Fenoplastlar	Karbon oksidi	20,0	4
	Fenol	0,3	2
	Fenoplast aerosoli	6,0	3
	Formaldegid	0,05	1
	Vodorod xloridi	5,0	2
	Benzol	5,0	2
Poliamidlar	Kaprolaktam(aerosol)	10,0	3

1	2	3	4
	Ammiak	20,0	4
	Geksametilen-diamin	0,1	1
	Uglerod oksidi	20,0	4
Polivinilxlorid	Dibutilftalar	0,5-1,0	2
	Vodorod xloridi	5,0	2
	Vinil xlorid	0,1	2
	PVX-aerozol	6,0	3
Polipropilen	Formaldegid	0,5	2
	Polipropilen		
	nestabilizirovanno'y	10,0	3
	Uglerod oksidi	20,0	4
Polietilen	Formal degid	0,5	2
	Uglerod oksidi	20,0	4
	Atsetal degid	5,0	3
	Sirka kislotasi	5,0	3
	PE-ND (aerozol)	10,0	3
Polietilen-ftalat	Atsetal degid	5,0	3
	Uglerod oksidi	20,0	4
	Tereftal kislotasi	0,1	1
	Dimetilteriftalat	0,1	1

Hamma zaharli moddalar xavfliligiga qarab 4 sinfga bo'lingan:

1-haddan tashqari xavfli

2-yuqori xavfli

3-o'rtacha xavfli

4-kam xavfli

Hamma moddalar ichida ko'proq fenol va formaldegid ish sharoitiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Polietilen plyonka.



4.1-rasm

Shu jumladan mening BMI mavzuyimni ishlab chiqarishga tadbiq etilsa atrof muxitga juda ko'p ziyon yetishi mumkin,sababi men ishlab chiqaradigan polietilen plyonkalar juda ko'p yillar davomida parchalanadi va atrof muhitga ziyon yetadi shu boisdan men bu BMI mavzuyimga ko'ra zararsiz polietilen paketlar ya'ni biopaketlar ishlatilishi kerak deb o'ylayman.



4.2-rasm

Polietilen paketlar



Biopaketlar

4.3-rasm

Kimyovi texnologiya va oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishda inovatsion g'oyalar Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami 2-qisim 3-bet Namangan -2016

